



TASDIQLAYMAN:

“O‘zmetkombinat” AJ

Boshqaruv raisining o‘rinbosari

Umumiy masalalar bo‘yicha direktor

A.M.Sharipov

**“O‘zmetkombinat” AJ xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini oshirish uchun
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi test savollari**

**1. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi
asosiy hujjat qaysi biri?**

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son Farmoni.

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

v) “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni.

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-fevraldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son qarori.

**2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga
oshiruvchi vakolatli davlat organlari qaysilar?**

a) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.

b) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat Statistika Vazirligi.

v) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi.

g) O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, Iqtisodiyot va moliya Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.

**3. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul
qilingan?**

a) 2009 yil.

b) 2017 yil.

v) 2020 yil.

g) 2019 yil.

4. Korrupsiya deganda nimani tushunasiz?

a) shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

b) mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va ahloq qoidalariga zid ravishda foydalanishi.

v) xodim tomonidan o'z xizmat lavozimidan foydalanib yaqinlari va qarindoshlariga modiy yoki nomoddiy yordam ko'rsatishi.

g) barcha javoblar to'g'ri.

5. "O'zmetkombinat" AJ xodimibiznes-hamkorlik davomida qancha miqdorgacha sovg'a olishi mumkin?

a) bazaviy hisoblash miqdorini uch baravarigacha.

b) bazaviy hisoblash miqdorini besh baravarigacha.

v) bazaviy hisoblash miqdorini to'rt baravarigacha.

g) agar sovg'a beruvchi tomon bilan hamkorlik yo'lga qo'yilsa sovg'a qiymati ahamiyati yo'q.

6. "O'zmetkombinat" AJ xodimi paydo bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi yoki yuzaga kelishi ehtimoli to'g'risida kimni xabardor qilishi shart?

a) o'zining bevosita boshlig'i, Kombinat rahbarini yoki Komplaens – xizmatini.

b) Ichki nazorat boshqarmasini.

v) huquqni muhofaza qilish organlari.

g) uning bevosita boshlig'i.

8. "O'zmetkombinat" AJ korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ichki hujjatlarini ko'rsating?

a) "Korrupsiyaga qarshi siyosati".

b) "Ahloq kodeksi".

v) "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom"

g) Yuqoridagi barcha javoblar barchasi to'g'ri

9. "O'zmetkombinat" AJ ish faoliyatingiz davomida siz tijorat siri bo'lgan hujjat bilan tanishib, uni ijro etdingiz. Biroz vaqtdan so'ng boshqa bir kompaniyadan sizga yaxshi taklif tushganligi sababli ish joyingizni o'zgartirmoqchisiz. Yangi ish joyingizda Kombinatda tanishgan tijorat siri sizga va kompaniyaga qo'l kelishini o'ylab siz bu hujjatdan bir nusxa ko'chirib oldingiz.

Savol: Kombinatning ichki me'yoriy hujjatlariga rioya etgan holda to'g'ri ish qildingizmi?

a) Bu to'g'ri. Siz yangi ishga o'tdingiz va "O'zmetkombinat" AJ odob - ahloq qoidalari endi sizga tegishli emas.

b) Bu tog'ri. Tijorat siri boshqa kompaniyaga tegishli bo'lib, O'zmetkombinat bilan hech qanday aloqasi yo'q?

v) Noto'g'ri. Tijorat sirlari ishdan bo'shatilgandan keyin ham uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi kerak.

g) Noto'g'ri. Ma'lumotlarni ko'chirishdan oldin "O'zmetkombinat" AJ dagi rahbaringizning ruxsatini so'rashingiz kerak edi.

10. "O'zmetkombinat" AJ ishonchsiz kontragent bilan aloqalar xavfini istisno qilish yoki kamaytirish uchun qanday choralar ko'riladi?

- a) Kontragentning ishonchliligini tekshirish.
- b) Kontragent bilan tuzilayotgan shartnomaga korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi moddani kiritish.
- v) Kontragentni Kombinatning "Axloq kodeksi" bilan tanishtirish.
- g) To'g'ri javoblar "a" va "b".

11. Qanday shaklda davlat xizmatchisiga manfaatlar to'qnashuvi haqida yoki uning yuzaga kelishi ehtimoli to'g'risida xabar berishga majbur?

- a) yozma ravishda.
- b) og'zaki.
- v) muhim emas.
- g) telegram kanali orqali.

12. Quyidagi sovg'alardan qaysi birini "O'zmetkombinat" AJ korrupsiyaga qarshi siyosati va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq sovg'a sifatida qabul qilib bo'lmaydi?

- a) 1,0 million so'mlik konsertga ikkita chipta.
- b) Koleksion 5,5 million so'mlik Viski.
- v) Parfyumeriya va kosmetika do'koniga 500,0 ming so'm qiymatidagi sovg'a kartasi.
- g) Bu variantlarning barchasi sovg'a sifatida qabul qilish mumkin emas.

13. "O'zmetkombinat" AJ xodimlari Kombinat "Ishonch telefoni" aloqa kanallari orqali anonim xabar qoldirishlari mumkinmi?

- a) Yo'q. Kon-geologiya vazirligi "Ishonch telefoni"ga yuborilgan anonim xabarlar ko'rib chiqilmaydi.
- b) Ha. Biroq, anonim bo'lib qolishni istagan arizachi bu holatda "O'zmetkombinat" AJ xabarni to'liq va har tomonlama ko'rib chiqish imkoniyati cheklanishini bilishi lozim.
- v) Yo'q. "Ishonch telefoni" orqali faqatgina arizachi "O'zmetkombinat" AJ xodimi bo'lmagan taqdirdagina anonim xabarlar qabul qilinadi.
- g) Ha. "O'zmetkombinat" AJ tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olmagan taqdirda ham barcha anonim xabarlarga nisbatan o'rganib chiqadi.

14. Agar biror kishi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga undash uchun "O'zmetkombinat" AJ xodimiga murojaat qilsa, xodim bu haqda kimni xabardor qilishi kerak:

- a) bunday murojaatni e'tiborsiz qoldirish kerak.
- b) ish beruvchining vakiliga.
- v) "O'zmetkombinat" AJ rahbariyatiga, Komplaens - xizmatiga yoki huquqni muhofaza etish organlarining vakiliga.
- g) xabar berish shart emas

15. Qanday hollarda pora bergan shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi?

- a) agar bu shaxs jinoyatni oshkor etishga va (yoki) tergov qilishga faol hissa qo'shgan bo'lsa yoki mansabdor shaxsdan pora talab qilingan bo'lsa, yoki shaxs jinoyat sodir etganidan so'ng, o'z ixtiyori bilan pora berganligi to'g'risida olgan huquqni muhofaza etish organlariga xabar bergan bo'lsa.
- b) bunday holatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ko'zda tutilmagan.
- v) agar pora miqdori 100000 ming so'mdan kam bo'lsa.
- g) agar pora miqdori 1 000 000 so'mdan oshmasa.

16. Korruptsiya uchun amaldagi qonunchilik bo'yicha qandayturdagi javobgarliklar nazarda tutilgan?

- a) Ma'muriy javobgarlik
- b) Jinoiy javobgarlik
- v) Intizomiy javobgarlik
- g) barcha javoblar to'g'ri

17. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga nimalar kiradi?

- a) korruptsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish korruptsiyaga oid huquqbuzarlik hisoblanadi
- b) kundalik tarzdagi kamchiliklar
- v) lavozim yo'riqnomasida ko'rsatilgan vaziflar
- g) yuqoridagi javoblar ichida to'g'ri javob yo'q.

18) Nimalar pora predmeti bo'lishi mumkin.

- a) qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar va naqd pullar
- b) tadbirkorning transport vositasidan foydalanish
- v) Moddiy va nomoddiy boyliklar, shuningdek, pora oladiganga qaytarmaslik sharti bilan, lekin mulkiy mohiyatga molik bo'lgan (masalan, ta'mirlash, qurilish, qayta tiklash ishlarini bajarish va boshqalar) xizmatlar pora predmeti bo'lishi mumkin.
- g) Barcha javoblar to'g'ri

19) Manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishda kimlar ishtirok etadi?

- A) bevosita rahbar
- B) xo'jalik bo'linmlari
- V) moliya iqtisod bo'linmalari
- G) ijro intizom bo'linalari

20. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasiga berilgan to'g'ritarifni aniqlang?

A) manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab ki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat

B) manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab ki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat

V) manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama – qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat

21. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda qanday chora ko'rilishi lozim?

- A) maslahat berish
- B) e'tiborsiz qoldirish

V) xodimni o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga taaluqli masalalar yuzasidan qaror qabul qilish jarayonidan chetlatish

G) Xodimni o'ziga yoki yaqin qarindoshiga taaluqli masalalarda rahbariga xabar bergan holda qaror qabul qilish

22. Manfaatlar to'qnashuvi doirasiga kiruvchi aloqador shaxslarni ko'rsating?

A) davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs

B) davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari

V) barcha javoblar to'g'ri

G) davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshilari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs

23. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish deganda nima tushuniladi?

A) reja dasturni tasdiqlash

B) qaror qabul qilishda xolislik va adolat prinsiplarini ta'minlash

V) to'g'ri qabul qilish bo'yicha strategiyalarni ishlab chiqish

G) to'g'ri qabul qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish

24. Manfaatlar to'qnashuvining salbiy oqibatlaridan birini keltiring?

A) Jamoatchlik nazoratiga salbiy ta'sir ko'rsatadi

B) nodavlat notijorat tashkilotlarga zarar etkazadi

V) xodimlarning ijrochilik intizomini pasayishi

G) davlatga zarar keltirishi

25. Shaxsiy manfaatdorlik nima?

A) ko'rilishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik

B) faqatgina davlat xizmatchilarining qarindoshlariga taaluqli ishlar va xizmatlar

V) fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar etkazishi

G) davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik

26. Manfaatlar to'qnashuvi vaziyatiga duch kelganingizda birinchi navbatda qanday chora ko'rasiz?

A) Bevosita rahbarga xabar beriladi

B) Huquqi muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilinadi

V) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga xabar beriladi

G) Rahbar tomonidan uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarmaslik yuzasidan chora tadbirlar amalga oshiriladi

27. Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish deganda nima tushuniladi?

- A) Manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish
- B) manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish
- V) manfaatlarni to'qnashuvini aniqlash
- G) manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish

28. Ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi qanday holat?

- A) manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga kelayotgan vaziyat
- B) Manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat
- V) pora berishga majburlaydigan vaziyat
- G) Manfaatlarni to'qnashuviga uchramaydigan vaziyat

29. Bevosita o'zi nazoratni amalga oshirgan tashkilotga ishga o'tganda qanday ko'rinishdagi manfaatlarni to'qnashuvi vaziyati vujudga kelishi mumkin?

- A) davlat byudjetiga zarar keltirishi mumkin
- B) davlat xizmatchisining davlat xizmatiga yuqoriroq lavozimga tayinlanishi
- V) nazoratni amalga oshiruvchi eski hamkasblar tomonidan tekshirishlar o'tkazilmasligi
- G) manfaatlarni to'qnashuvi vujudga kelmaydi

30. Manfaatlarni to'qnashuvi tartibga solishda qanday chora ko'rilishi lozim?

- A) maslahat berish
- B) e'tiborsiz qoldirish
- V) Xodimni o'ziga yoki qarindoshlariga taaluqli masalalar yuzasidan qaror qabul qilish jarayonidan chetlatish
- G) Xodimni o'ziga yoki yaqin qarindoshlariga taaluqli masalalarda rahyuariga xabar bergan holda qaror qabul qilish

Kelishildi:

Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplayens xizmati boshlig'i

Xojiev T.T.